
Rishton tumanida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida sport musobaqalarining sektor bosqichlari o‘tkazildi

Joriy yilning 6 may kuni Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi va tuman Sportni rivojlantirish bo‘limi bilan hamkorlikda “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida sportning voleybol turi bo‘yicha musobaqaning sektor bosqichlari o‘tkazildi. Musobaqani o‘tkazishdan asosiy maqsadi – mahalla yoshlarida jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, yosh iqtidorli sportchilarni tanlab olish, ularda professional mahorat va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga doimiy ravishda jalb etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ular o‘rtasida sport musobaqalarini o‘tkazish orqali o‘zaro do‘stona aloqalarni mustahkamlashga sharoit yaratish, sportning ommaviylashgan olimpiya hamda milliy sport turlarini rivojlantirishdan iborat. Musobaqalar 1 sektor hududidagi 58-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida, 2 sektor hududidagi 18-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida, 3 sektor hududidagi BO‘SMda, 4 sektor hududidagi 1-IDUM sport zallarida to‘rt yosh toifasida 11-15 yosh, 16-21 yosh, 22-26 yosh, 27-30 yosh toifasida o‘tkazildi. Musobaqada faol ishtirok etib faxrli birinchi o‘rinni egallagan jamoalar musobaqaning tuman bosqichida ishtirok etishlari uchun yo‘llanma berildi.

2022-05-07 06:21:54